

## **YUNESKONing Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi (O'zbekiston misolida)**

**Xusanov Doston**

O'zbekistonning davlat mustaqilligi xalqimizning uzoq yillar davomida olib borgan og'ir va mashaqqatli kurashining qonuniy natijasidir. Vatanimiz tarixi mustaqillik xalqimizga nihoyatda katta qimmatga tushdi. Endilikda xalqimizning o'z taqdiri o'z qo'lida o'z mustaqilligini mustahkamlash yo'lida astoydil mehnat qilmoqda. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab xalqaro konvensiyalarga va jahonning nufuzli tashkilotlariga a'zo bo'lib kirdi. Xususan Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan tashkilotlaridan biri-Yuneskoga 1993- yilning 29-oktabrida a'zo bo'lib kirdi. Mamalakatimiz o'z mustaqilligiga erishgandan keyingi davrda O'zbekiston tashqi siyosati mamalakatimizni xalqaro tashkilotlar doirasidagi faoliyati tobora rivojlanayotgan va o'z navbatida uning tashqi siyosatida xalqaro tashkilotlarning ahamiyati ortib borayotgani bilan xarakterlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarni to'la huquqli subyetidir" -deb ko'rsatib qo'yilgani va ushbu moddaning ikkinchi qismida "Respublika davlatning xalqning oily manfaatlarini, faravonligini va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklar boshqa davlatlararo tizimlarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin"[1]

1993-yil 29-oktabrda Yuneskonning Parijdagi qarorgohida O'zbekistonni Yuneskoga a'zolikka qabul qilish marosimi bo'ldi. O'sha kuni Ulug'bek tavalludining 600-yillicini nishonlash Yunesko dasturiga kiritildi. 1994-yil oktabrida Parijda Ulug'bek haftaligi tantana bilan o'tdi. Xiva va Buxoro Yuneskonning jahon madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi. Bu ro'yxatda 411 ta obyekt bor. 1994-yil dekabr oyida YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi tashkil etildi. Idoralararo organ bo'lib tarkibiga ta'lim fan va madaniyat sohasidagi vazirliklar va idoralardan 49-kishi a'zo bo'lgan. Keyingi davrlarda esa Yunesko bilan hamkorlik yangi darajaga ko'tarildi. Bu

Yunesko tomonidan butun jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan asor-u aqidalarimizning madaniy qadryatlar ro'yxatiga kiritilgani ulug' bobokalonlarimizning yubiley tantanalari nishonlanishida yaqqol ko'zga tashlanadi .Xususan, 1991-yilda jahon madaniyatining durdonalaridan hisoblangan Buxoro va Xiva shaharlarining 2500-yillik muborak sanalari Parijda keng nishonlandi ,xalqaro anjuman va ko'rgazmalar o'tkazildi. Yunesko Bosh direktori Federiko Mayorning O'zbekistondagi rasmiy tashrif chog'ida 1995-yil iyul oyida mazkur institute ochildi. Buni yana O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yunesko bosh directori Federiko Mayorni O'zbekiston Respublikasining "Do'stlik" ordeni bilan mukofatlash to'g'risidagi farmonida ham ko'rishimiz mumkin. Shunis I ahamiyatliki o'zbek xalqining bag'riga ozodlik shamoli tekkan ilk yillardayoq YuNESKO Amir Temurning insoniyat tarixidagi ulkan xizmatlarini jahon ahliga tanitishda O'zbekiston hukumati bilan birgalikda ulkan jonbozlik ko'rsataboshladi.[2]

Keyingi paytlarda BMTning jahon integratsiyasida ro'li qisman pasayib qolganligini ko'rishimiz mumkin.Bunga sabab Afg'oniston muammosimi? Bu kabi savollar juda ko'p. Biroq Afg'onistondagi keskin vaziyatlar bunga sabab bo'lishi mumkin. Bugungi kunda Afg'oniston oldida yechilishi kerak bo'lgan bir qancha muammolar mavjud. Xususan Afg'onistondagi turli etnik guruhlar orasidagi mojarolarga chek qo'yish, Afg'onistonning AQSH bilan kelajakdagi munosabatlarni hal qilish, Afg'oniston uchun eng katta xavf bo'lgan Tolibonlar mojarosiga chek qo'yish kabi muammolar o'z yechimini topmagan. BMT esa ana shunday millatlararo vujudga keladigan turli muammolarni hal qilishga harakat qilmoqda. Hozirgi kunda 4800 dan Yunesko klublari uyushmasi va markazlari tashkilotning g'oyalarini tarqatishda xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi YuNESKOning quyidagi muhim hujjatlariga qo'shilgan[3]:

- 1.1954yil 14-maydagi qurolli mojarolar vaqtida madaniy yodgorliklarni himoya qilish to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi
- 2.1960-yil 10-noyabrdagi ta'lim sohasidagi kamsitishga qarshi konvensiya
- 3.1966-yil 14-noyabrdagi xalqaro madaniy hamkorlik prinsplari deklaratsiyasi

4.1970-yil 14-noyabrdagi madaniy boyliklarni qonuniy ravishda olib kelish, olib ketish va unga egalik huquqini birovga topshirishni taqiqlash va ogohlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi konvensiya

5.1971-yil 2-fevraldagi asosan suvda suzuvchi qushlarni yashash joyi sifatida xalqaro ahamiyatga molik suv va botqoq maydonlari to'g'risidagi konvensiya

6.1972-yil 16-noyabrdagi Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish umumjahon konvensiyasi

7.1989-yil 10-noyabrdagi texnikaviy va hunar ta'limi to'g'risidagi konvensiyaga

8.1995-yil 16-noyabrdagi Bagrikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi va hokazolar.

O'zbekiston va Yunesko hamkorligi to'g'risida fikr bildiradigan bo'lsak, Yuneskoning jahondagi o'rni va ro'liga to'xtalib o'tish joiz bo'ladi. Xususan Prezidentimiz Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi nutqida "Birlashgan Millatlar Tashkiloti barcha elatlarning, mintaqalarning eng muhim muammolarini muhokama qilish va yechish uchun tuzilgan noyob tashkilotdir"[4] deb aytib o'tgan.

YuNESKO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o'rganish, tiklash va ommalashtirishga katta ahamiyat bermoqda. Xususan YuNESKO kengashi 149-sessiyasining yalpi majlisida O'zbekiston Prezidentining so'zlagan nutqida "Ipak yo'li-muloqot yo'li" nomli dasturni to'la qo'llab quvvatladi. Unda bu tashkilotning bugungi kundagi o'rni va uning xalqlar madaniyatiga qo'shgan xissalari aytilib o'tildi. Bugungi kunda YuNESKO xalqlar boshini qovushtiradigan juda qiyin vazifani bajarib kelmoqda.

YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-dekabrda 629-sonli qarori asosida tashkil topgan. Komissiyaning asosiy maqsadi va vazifalari faoliyati va moliyaviy mablag'lari bo'yicha axborot muassasaning nizomida aks ettirilgan. 2004-2006-yillarda YuNESKoning "Kasb – hunar ta'lim sohasidagi ko'chma guruhi" loyihasi amalga oshiriladi. Unda O'zbekiston mutaxassislari turli davlatlar tajribasini

o'rganish imkoniga ega bo'ldi. O'zbekiston va YuNESKO hamkorligini quyidagilar orqali ham ko'rishimiz mumkin.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1.1998-yil Buyuk munajjim va faylasuf jamoat arbobi Axmad Farg'oniyning 1200-yilligi

2.1998-yil Buyuk hadisshunos olim islomshunos alloma Imom al-Buxoriy tavalludining 1255-yilligi

3.1999-yil Markaziy Osiyo va Sharq xalqlarining so'nmas ijodi bo'lmish "Alpomish"dostoning 1000-yilligi

4.2000-yil Sharq xalqlari miniatyura maktabining asoschisi K.Bexzodning 545-yilligini nishonlanishlarida o'z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekistonRespublikasiKonstitutsiyasi Toshkent-2003.6-bet

2.MustaqilO'zbekiston tarixi.3-tom,Narzullu Jo'rayev,Tursunboy

Fayzullayev.G'.G'ulomnomidaginashriyotmatbaa uyi.T-2009.432-bet

3.O'zbekistonMilliy Ensiklopediyasi.1993-yil 144bet

4."Xalq so'zi" Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi nutqi.1993-yil.N27(49).